

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TA'SDQILOVGAN VA SMALIQ KUTUBXONASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda" shartiga ega bo'lgan fikrda tashrif etilganda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda" shartiga ega bo'lgan fikrda tashrif etilganda.


TA'LIM TALABLARI

60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta'lim yo'naliшining malaka talablari

Yaqin bilan o'zlashtirilgan filologiya ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda" shartiga ega bo'lgan fikrda tashrif etilganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda" shartiga ega bo'lgan fikrda tashrif etilganda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda, "O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'limgazalar vazirligiga qarab tashrif etilganda" shartiga ega bo'lgan fikrda tashrif etilganda.

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil «24» 08 dagi 4-sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil «25» 08 dagi 36.5- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi</i>	4
1.1.3.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlari tavsifi</i>	4
1.2.1.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	5
1.2.3.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari</i>	5
2.	<i>60230700 – Amaliy filologiya ta’lim ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i>	8
2.1.	Umumi kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	9
	Bibliografik ma’lumotlar	12
	Kelishuv varag‘i	13

1. 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi. Bakalavriatura dasturining me’yoriy muddati - 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60230700 – Amaliy filologiya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolati doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalarini;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari:

60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalri, nashriyotlar va matbaa korxonalari, nashriyot-matbaa majmualari, internet nashrlari, noshirlik mahsulotlarini tayyorlash, dasturiy mahsulotlar, iqtisodiyot, boshqaruv va marketing, ilmiy tadqiqot; umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayonida

foydalaniladigan fanlar, faoliyat vositalari, usullari, metodlari;

Gumanitar sohadagi ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;

Ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. *60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari:*

- barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida referent, ish yurituvchi;
- huquq-tartibot idoralarida, lingvistik ekspertiza bo‘lim (markaz)larida ekspert, sud jarayonida nutq eksperti sifatida ishlash;

-noshirlik ishi jarayonlarida muharrir, musahih;

- reklama byurolarida xodim, kopirayter kopirayter (reklama matnlarini yozadigan mutaxassis); turli saytlarda kontent-menejer (nashr yoki veb-sayt mazmuni uchun mas’ul shaxs) bo‘lib ishlash;

-xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va elchixonalari, turistik agentliklar, madaniyat-ma’rifat muassasalarida nutq tayyorlovchi (speech writer), matbuot kotibi, tarjimon sifatida ishlash;

- O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va boshqa tarmoqlar ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;

- ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida matbuot kotibi, piar-menejer, vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlari samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi sifatida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.3. *60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari*

- amaliy filologik faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyihalash-innovatsion faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

1.2.4. *60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.*

60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Amaliy-filologik faoliyat:

- o‘zbek tilining amaldagi me’yor va tartiblari asosida turli xil va turdagи matnlarni yaratish, shuningdek, turli tipdagi matnlarni qayta ishlash, ularga ishlov berish, masalan, tuzatish, tahlil va tahrir qilish, sharhlash, annotasiyalash,

referatlashtirish, tavsiflash;

- har xil turdag'i matnlarni mohirona o'zgartirish (matnning uslubini, janrini, maqsadga muvofiq bo'lishiga o'zgartirish), shu jumladan, o'zgartirilgan matn asosida yangi publisistik matnlar, tahliliy sharhlari va esselarni yaratish, ularni tahrir qilish va referatlashtirish;

- turli tipdagi, ya'ni rasmiy, ilmiy, badiiy va publisistik matn hamda hujjatlarni boshqa tillardan ona tiliga, ona tilidan boshqa tillarga sifatli tarjima qilish;

- sud-ekspertiza ishlarida matnlarning mukammal lingvistik ekspertizasini amalga oshirish; sud jarayonida nutq eksperti bo'lib ishlash malakalarga ega bo'lish;

- ta'limiylar, ilmiy madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-tashkiliy idoralar, bosmaxonalar, jamoaviy va aloqa sohalariga doir turli tipdagi loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish kabi amaliyotlarda namoyon bo'ladigan professional bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;

- xorijiy tillarni mukammal egallash va ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olish;

- mualliflar va qo'lyozmalar bilan ishlash, ularni tahrirlash, nashriyotlarning turli bo'limlari (logistika, ishlab chiqarish, marketing, tarqatish), kitoblar va lingvistik dasturiy ta'minot yaratish usullarini egallashi va ulardan unumli foydalanishi;

- mas'ul muharrir sifatida internet-portalda yoki bosma nashrda yoxud axborot agentligi lentasidagi ma'lumotlarni joylashtirish, fakturani, ya'ni nashr kontseptsiyasining g'oyasiga materiallar va mavzuning mosligini tekshirish, ta'sirchan sarlavhalarni o'ylab topish, ijodiy guruh ishini muvofiqlashtirish, nashrlarning tematik rejasini tayyorlash, sinchiklab qilingan tahrirdan so'ng materialni matbuotda yoritita olish malakasiga ega bo'lish;

- kontent-menejer sifatida veb-saytni zaruriy mazmun (matnli va grafik ma'lumotlar) bilan to'ldirish, foydalanuvchilar bilan interaktiv ishlash, muloqot qilish malakasiga ega bo'lish;

- kopirayter sifatida reklama qilingan mahsulotni sotib olish istagini paydo qila oladigan matn yozish malakasiga ega bo'lish;

- har qanday multimedia mahsuloti xususida, dizayn, video, raqamli, zamonaviy multimedia tendensiyalari va reklama sohasidagi texnik yangiliklardan xabardor bo'lish;

- musahhih sifatida matnni asl nusxasi bilan solishtirish va matn teruvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan imloviy va ishoraviy xatolarini tuzatish, o'rnatilgan texnik qoidalarning buzilishini bartaraf etish, rasmlar, sxemalar, diagrammalar ostidagi yozuvlarni, satrdagi harflar orasidagi masofaning to'g'ri bo'lishini tekshirish malakasiga ega bo'lish;

- o'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini chuqr o'zlashtirish;

- o'zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalana olish, buning uchun o'z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi amaliy filologiya yutuqlari bilan yaqindan tanishgan holda, ulardagi ilg‘or usullarini jarayonga tatbiq qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- o‘zbek tili va adabiyotinining o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqr o‘zlashtirish;

- o‘zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalana olish, buning uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- o‘zbek tili va adabiyoti sohasida olingen nazariy va amaliy bilimlarni qo‘llash orqali ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- tadqiqotlar natijasini referatlar, taqdimotlar, ilmiy ma’ruzalar, ilmiy maqolalarda taqdim qilish;

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid nazariy masalalar mavzularida tadqiqotlar olib borish;

- tadqiqot mavzusiga oid ingliz tilidagi materiallarni o‘qiy olish va amalda qo‘llash;

- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

- kasbiy faoliyat obyekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Loyihalash-innovatsion faoliyatida:

-amaliy filologiyaga oid bilimlarni targ‘ib qilish sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish: mintaqadagi nutq madaniyati darajasini kuzatish, uni qo‘llab-quvvatlash, yuksak madaniy ahamiyatga ega sanalarga bag‘ishlangan filologik ma’ruzalar, bayramlar, festivallar, tantanalarni loyihalashtirish;

-filologiya sohasidagi o‘quv jarayonining tuzilishi va mazmunini loyihalash, tuzish, modellashtirish: o‘rtta va oliy maktablarda ixtisoslashтирilган gumanitar ta’lim bilan bog‘liq loyihalarni ishlab chiqish;

-grant faoliyati doirasida filologik loyihalarini ishlab chiqish;

- yangi filologik loyihalarini yaratish, ularning kontsepsiyalari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, filologik bilim vositasida mablag‘ topishning mavzuiy va ishlab chiqarish rejalarini shakllantirish;

- amaliy filologiyaga oid faoliyatdagi loyihalash yuzasidan nazorat olib borish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- amaliy filologiyaga oid faoliyatdagi loyihalashni axborot-bibliografik ta’minlash va reklama qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- amaliy filologiyaga oid mahsulotni targ'ib qilish va tarqatish faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- amaliy filologiyaga oid mahsulotni targ'ib qilish bo'yicha marketing tadbirlarini tashkil qilish;
- amaliy filologiyaga oid mahsulotni targ'ib qilish faoliyatini axborot-bibliografik ta'minlash;
- mijozlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lganda to'g'ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijasini baholash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

60230700 – Amaliy filologiya ta'lif yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilariga beriladigan bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi.

Quyidagi bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:

- Amaliy filologiya bo'yicha mutaxassis.

2. 60230700 – Amaliy filologiya ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lish;
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- fuqarolik jamiyatining dolzARB masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, xorijiy hamkorlar bilan og'zaki va yozma muloqot qila olish;
- tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasbiy faoliyatida foydalana bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, xalqaro yozishmalarni va elektron aloqalarni olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishslash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirishning bilim, ko'nikma va

qobiliyatlariga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

60230700 – Amaliy filologiya bakalavriyat ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

- adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, adabiyotshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;
- tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoşlikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;
- hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik, grafik, leksik, morfologik, morfemik, sintaktik xususiyatlarini, o'zbek tili orfografik va punktatsion adabiy me'yor, qoidalarni to'la o'zlashtirib, o'zbek tilining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi va tatbiqini tahlil qilish, matn yaratish, tahrir jarayonida foydalana olish;
- badiiy adabiyot, o'zbek adabiyotining tur va janriy masalalarini, barcha badiiy-estetik tabiatini, davrlarini mukammal o'rganib, o'zbek adiblarining asarlari asosida tilning imkoniyatlarini, badiiy adabiyotning nutq, muloqot faoliyati bilan bog'liq imkoniyatlarini baholay olish, tahlil etish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- matn ijodi nazariyasi va amaliyotiga oid nazariy-amaliy masalalarni ilg'ay olish, matn yaratish, uning birliklari va ular o'rtaqidagi munosabatlarni ochib berish, matn yaratish bo'yicha filologik malakalarga ega bo'lish;
- o'zbek tilining sotsiolingvistik xususiyatlarini bilish, amaliy filologiya va sotsiologiya munosabatlarini anglash, tahlil qilish, til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta'siri, til siyosati, millat va milliy til muammolarini farqlash;
- leksikografiya, zamonaviy leksikografiya obyektlari, nazariy va amaliy masalalari yuzasidan bilimlarga ega bo'lishi, leksikografik amaliyotning o'ziga xos funksiyalarini belgilash, lug'at yaratish, leksikografik tavsif va izohlarni shakllantirish malakasiga ega bo'lish;
- amaliy psixolingvistika va eksperimental tadqiqotlarda metodik tayyorgarlik asoslardan xabardor bo'lish, til psixologiyasi bilan bog'liq nazariy va eksperimental bilimlarga ega bo'lish, til ta'llimi va nutq patologiyasi bog'liqligini dalillay olish; psixolingvistika tarmoqlarini tilni qayta ishlash, nutqni yaratish, idrok etish, aqliy leksika va grammatika modellarini tahlil qila olish;
- o'zbek tili va adabiyoti fani bilan psixologiyaning o'zaro munosabatini tekshirish, psixologik holat va hodisalarining til va adabiyot bilan uyg'un jihatlarini tahlil etish, filologiya va psixologiya munosabatini tadqiq qila olishga oid bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish;
- o'zbek tili va adabiyotiga oid nazariy bilimlarini muntazam takomillashtirib borish, ona tili va adabiyot fanlarining dolzarb masalalarini ilg'ay olish, kasbiy faoliyatida qo'llay bilish;
- Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat

tilida jahon o‘lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, o‘z fikrini yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay bilish, tegishli matnni hujjat turiga va uning zaruriy qismlari mazmuniga mos tarzda mustaqil ravishda tuza olish, jo‘natilgan hujjatga tashkilot munosabatini aniq ifodalagan holda to‘g‘ri javob yozish, taklif yoki e’tiroz bildirish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosalash, umumlashtirish va bunda kirish so‘zlardan, iqtibos, ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– metodologiya va lingvistik ekspertologiyaga oid zamonaviy bilimlarni mustaqil egallash, metodologik muammolarni anglash va ularga yechim topa olish; lingvistik ekspertiza tashkil etish ko‘nikmasi va ekspert xulosalarini shakllantirish; matn avtorizatsiyasi (qo‘lyozma matnlar, imzo, bosma ko‘rinishdagi matnlar(biror asar, anonim xat)), shaxsni obro‘sizlantirish ko‘rinishidagi konfliktli matnlar, reklama matnlari, tovar belgilari, siyosiy yoki ijtimoiy ko‘rinishdagi turli konfliktli matnlar, ovozli xabarlar identifikatsiyasi bo‘yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizaning turli ko‘rinishlarida umumiy va xususiy jihatlarni farqlay olish, shu asosda konfliktli matn xususida ekspert xulosalarini shakllantirish, turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarni loyihalashtirish, konfliktli matnni mavjud fakt va belgilariga asosan xolisona baholash malakasiga ega bo‘lish;

– lingvokriminalistikaning jahon miqyosida va o‘zbek lingvokriminalistikasida mavjud tendensiyalarning amaliyotga tabiqi masalasini o‘rganish; turli konfliktli matnlarning (har xil turdag'i matnlar - yozma, og‘zaki va virtual (shu jumladan gipermatn va multimedya obyektlarining matnli elementlari); og‘zaki, yozma va virtual muloqot) nazariy va amaliy, sinxron, diaxronik, ijtimoiy-madaniy va dialektologik jihatdan o‘z tarixiy va nazariy jihatlarida, har xil mavjudlik belgilarini hisobga olgan holda kriminalistik jihatlarini aniqlash va baholash;

– matnni psixolingvistik tahlil qilishning ma’lum metodologiyasini va unga mos keladigan modelini o‘rganish; matnning antroposentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada yaqqol namoyon bo‘lishini, psixolingvistik tadqiqotlarda matnning *matn tuzuvchi-matn-retsipyentdan* iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o‘rganish malakasiga ega bo‘lish;

– zamonaviy lingvodidaktika g‘oyalari, lingvodidaktika tarixi, lingvodidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, lingvodidaktikaning psixologik va psixolingvistik, didaktik asoslari, prinsiplaridan xabardor bo‘lish; til o‘qitishda milliy va xorijiy metodikaning ilg‘or tendensiyalari, metodologiya va lingvodidaktikaga oid zamonaviy bilimlarni mustaqil egallash, metodik muammolarni odindan anglash va yechim topa olish malakasiga ega bo‘lish;

– dalillashning mantiqiy asoslarini bilishi, bilimlarning mantiqiy shakllari: muammo, faraz, nazariyani farqlashi; turkumlash hamda savol/javob-mulohazalarini hosil qilish vositalarini bilishi; murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqara olishi; ilmiy tanqid qilish oldiga qo‘yiladigan mantiqiy talablar hamda isbotlash va rad etish qoidalarini egallagan bo‘lishi;

- muloqotga kirishuvchanlik, nutqning ta'sirchanligi, shaxsiy va kasbiy nutq texnikasini egallashi; o'z faoliyati jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida shaxslararo munosabatlarni o'rnatishni tanlay olishi, muloqot nazariyasining asosiy qoidalari, madaniyatlararo, shaxslararo va ommaviy muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, madaniy xilma-xillik haqida tushunchaga ega bo'lish, shaxsiy va kasbiy muloqot turlaridan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi;
- zamonaviy toponimikada erishilayotgan natijalardan, toponimika tarixi toponimikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, toponimik filologiya prinsiplardan xabardor bo'lish, toponimik filologiyaning prinsiplari, tarixi, toponimik bilimga ega bo'lish, toponimlarning filologik xususiyatlarini bilish, tahlil qilish, tadqiq qil'a olish malakasini egallashi;
- amaliy filologiyada boshqaruvni strategik rejalashtirish; boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqish; boshqaruv uslublarini tanlash; tashkiliy madaniyat qonunlariga amal qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish;
- reklama nazariyasi va amaliyotiga oid ma'lumotlarni o'rganish, tasniflash, aloqadorlik va muhim jihatlarni farqlash, reklamani yaratish, uning filologik, psixologik aspektlarini to'g'ri baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- semantika sohasi, uning tadqiq obyekti, nazariy-amaliy masalalarining mazmun-mohiyatini bilish, filologik hodisalarining semantik tabiatini va tarkibini tekshirish, tadqiq qilish, tahlil qila olish malakalarini egallashi;
- tahrir jarayonida muallif va muharrir munosabatini to'g'ri anglash, matnni bayon qilish usullari hamda matn tahrir qilish asoslaridan xabardor bo'lish; matn tahlili va tahririni amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to'g'ri tushunib qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- internet, axborot agentliklari, auditoriya, boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik fikrini o'rganish xizmatlari, reklama agentliklaridan olingan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash; axborot to'plashning turli usullari (intervyu texnologiyasi, kuzatish, hujjatlar bilan ishslash), ularni tekshirish, tanlash va tahlil qilish, jurnalistika usullaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- tahrir jarayonida muallif va muharrir munosabatini to'g'ri anglash, matnni bayon qilish usullari, turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish hamda matn tahrir qilish asoslaridan xabardor bo'lish; matn tahlili va tahririni amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to'g'ri tushunib qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- badiiy asarni, adabiy va boshqa matnlarni lisoniy tahlil etish hamda uning metodlarini qo'llay olish;
- filologik bilimlarni aniqlash, baholash, xolis va asoslarga ega xulosa chiqarish vosita va usullari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lish, baholashning, xususan, testning mazmuni, tarkibi, uni yaratish tamoyillari va qo'llash malakasini egallagan bo'lishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kasbiy faoliyatga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash malakasiga ega bo'lish;

– mumtoz asarlarni sharhlash bosqichlari, sharhlashning tarixi, mantiqiy asoslari haqida bilim va ko'nikmalarga, mumtoz asarlarni sharhlashning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda filologiya fanida tutgan o'rni haqida bilimlar, sharhlashning zamonaviy metodlaridan xabardor bo'lish hamda ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– notiqlik mahoratining o'ziga xos filologik jihatlari, so'zamollik, nuktadonlikning mohiyati, vazifasi va faoliyati haqidagi ma'lumotlarga, shuningdek, nutq, matn, muloqot jarayonida tilning imkoniyatlarini to'g'ri anglab, ulardan nutq vaziyati, fikr mavzusi kabilarga asoslanib qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;

– adabiy tanqidning mohiyati, vazifasi va faoliyati haqidagi ma'lumotlar ega bo'lish, tanqidchining mazkur jarayonidagi o'rni va ahamiyatini anglash, adabiy tanqidning amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to'g'ri baholash malakasiga ega bo'lish;

– akademik uslub fani orqali yuqori saviyadagi akademik matnlar bilan tanishish, akademik usul fani va boshqa fanlarning o'zaro bog'liqliklari haqida bilimlarga hamda matnlarni akademik tahrir qilishning usul va yondashuvlari haqidagi bilim va malakalarga ega bo'lish;

– tahrir mahorati fani va uning maqsad vazifalari haqida bilimga, tahrir mahorati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, uning ahamiyati haqida bilimlarga hamda tahrirning amalga oshirishning eng samarali va qulay usullaridan xabardor bo'lish va qo'llay olish malakasiga ega bo'lish talab etiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7
OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, kompetentsiya, kredit, modul, kasbiy faoliyat turlari, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli; amaliy psixolingvistika, eksperimental tadqiqot, o'zbek tilining sotsiolingvistik xususiyatlari, zamonaviy toponimika, reklama nazariyasi va amaliyoti, internet, axborot agentliklari, auditoriya, boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik fikrini o'rganish xizmatlari, reklama agentliklari, zamonaviy lingvovidaktika g'oyalari, lingvovidaktika tarixi, lingvovidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, lingvovidaktikaning psixologik va psixolingvistik, didaktik asoslari, prinsiplari, metodologiya, lingvistik ekspertologiya, og'zaki, yozma va virtual muloqot.

KELISHUV VARAG'I
ISHLAB CHIQILDI:
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor Sh.Sirojiddinov
2021-yil «_____»
m.o'.



**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Direktor v.b. M.Esonov
2021-yil «_____»
m.o'.



**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
O'zbek tilini rivojlantirish
jamg'armasi**

Direktor A.Eminov
2021-yil «_____»
m.o'.

